

**O'zbekistonda neft gaz солиққа оид муносабатлар тартибга солиш  
масалалари**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

*Magistranti Abdullaeyev Shuxrat Sultanbayevich*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekistonda neft gaz солиққа оид муносабатлар тартибга солиш масалалари amalga oshirishning xorij tajribasi tahlil qilingan bo'lib, bu tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligini takomillashtirish masalalari, Yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, yirik soliq to'lovchilar, xorij tajribasi, soliq salohiyati, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.*

**Kirish:** Jahondagi rivojlanayotgan va o'tish davrini kechirayotgan mamlakatlar tajribasi yirik soliq to'lovchilarning qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish ma'lum xavflarni bartaraf etib, soliq qonunchiligini oshirish va soliq ma'murchiligining yanada samarali bo'lishini ta'minlashini ko'rsatmoqda.

Neft va gaz sohasidagi faoliyat uchun tegishli soliq stavkalarini aniqlash hal qiluvchi masala hisoblanadi. Investitsiyalarni jalb qilish va davlat daromadlarining adolatli ulushini ta'minlash o'rtasida muvozanatni saqlash ko'pincha qiyin. Neft va gaz loyihalari o'zini oqlash muddati uzoq bo'lgan katta investitsiyalarni talab qiladi. Moliyaviy barqarorlik va loyihaning amal qilish muddati davomida soliq siyosatidagi o'zgarishlar ehtimoli haqidagi xavotirlar investitsiya qarorlariga ta'sir qilishi mumkin. Sarmoyadorlar uchun ham jozibador, ham hukumat uchun foydali bo'lgan royalti va PSAlarni loyihalash va boshqarish murakkab vazifadir. Resurslarni qazib olishdan olingan foydaning adolatli taqsimlanishini ta'minlash asosiy masala hisoblanadi. Transfer bahosi bilan bog'liq muammolar neft-gaz sektoridagi o'zaro bog'liq shaxslar o'rtasidagi operatsiyalarni amalga oshirishda

## Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yuzaga kelishi mumkin. Soliq bazasining emirilishining oldini olish uchun ushbu operatsiyalarning o'zaro kelishuv asosida amalga oshirilishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Neft va gaz sanoati ko'pincha ekologik va ijtimoiy ta'sir ko'rsatadi. Soliq tushumlariga bo'lgan ehtiyojni ekologik va ijtimoiy mas'uliyat bilan muvozanatlash me'yoriy-huquqiy bazada muammolarni keltirib chiqaradi. Hukumatlar mahalliy sanoatni rivojlantirish uchun mahalliy tarkib talablarini qo'yishi mumkin. Biroq, mahalliy rivojlanish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish o'rtasida to'g'ri muvozanatni topish juda muhimdir. Neft va gazning global narxlari va bozor dinamikasidagi o'zgarishlar loyihalarning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir qilishi va soliq qoidalariga ta'sir qilishi mumkin.

Soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqarishdagi muammoli omillardan biri davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda katta fiskal ahamiyatga ega bo'lgan tarmoq-neft mahsulotlaridan undiriladigan soliqlar bo'yicha muammolar hamda bu tarmoqdagi yashirin iqtisodiyot holatlarini keltirish mumkin, shu boisdan biz bu boradagi mavjud muammolarning sabablarini tahliliy usul asosida ochib berishga harakat qilamiz.

### 1-jadval.

**Respublikamizda 2012-2022-yillar ishlab chiqarilgan tabiiy gaz ishlab chiqarilishi va uning soliq to'lovchilar tomonidan soliq hisobotlaridagi farq tahlili<sup>1</sup>**

ich	Ko'rsatk	2020-yil			2021-yil			2022-yil		
		Tabiiy gaz chiqarish (mln.m <sup>3</sup> )	Soliq hisobotlarida	Farqi	Tabiiy gaz chiqarish (mln.m <sup>3</sup> )	Soliq hisobotlarida	Farqi	Tabiiy gaz chiqarish (mln.m <sup>3</sup> )	Soliq hisobotlarida	Farqi

<sup>1</sup> Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

## Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Tabiiy gaz qazib chiqarish	60 71	54 97	-	49 70	47 95	-	53 63	45 11	-
"O'zbekn eftegaz" AJ	37	33	-2	33	33	-	33	30	-
Xorijiy va qo'shma korxonalar	22	21	-1	16	14	-1	19	14	-3
	962		688	603				846	505
	2		4 137	7				1	4 336
	749		449	104				265	831

1-jadval ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, tabiiy gaz qazib chiqarish holati va uning haqiqiy hajmlari bilan soliq hisobotlarida aks etilishi o'rtasidagi farqlarning mavjudligi, bu borada yashirin iqtisodiyotning mavjudligi, soliqlarni kam to'lashga olib keluvchi soliqdan qochish holatlarining yuzaga kelganligini ko'rish mumkin. Buni 2012-2022-yillar Respublikamizda ishlab chiqarilgan tabiiy gaz ishlab chiqarilishi va uning soliq to'lovchilar tomonidan soliq hisobotlarida farqlar ham ko'rsatib turibdi. Ya'ni, bunday farq 2020-yilda 4137 mln.m<sup>3</sup>, 2021-yilda 1 750 mln.m<sup>3</sup>, 2022-yilning to'qqiz oyligida esa, 4 336 mln.m<sup>3</sup>ni tashkil etgan, bu esa, shuncha miqdordagi tafovut miqdorida belgilangan soliq to'lovlari amalga oshirilmay qolganligini ko'rsatadi.

### 2-jadval.

**O'ztransgaz korxonalari tomonidan 2019-2022-yilda tabiiy gazni kirim qilish hamda realizatsiya qilish miqdorlari tahlili<sup>2</sup>**

	2020-yil	2021-yil	2022-yil
--	----------	----------	----------

<sup>2</sup> Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

## Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

	Ko'rsatk ichlar	2020-yil			2021-yil			2022-yil		
		Topshirish dalolatnomasiga asosan	Soliq hisobotlariga asosan (mln m <sup>3</sup> )	Farqi	Topshirish dalolatnomasiga asosan	Soliq hisobotlariga asosan (mln m <sup>3</sup> )	Farqi	Topshirish dalolatnomasiga asosan	Soliq hisobotlariga asosan (mln m <sup>3</sup> )	Farqi
Jami xaridlari		50 603	50 044	559	43 961	43 961	0	47 123	47 123	0

Keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida 2019-2022-yilda O'ztransgaz korxonalarini tomonidan tabiiy gazni kirim qilish hamda realizatsiya qilish miqdorlari tahlil qiladigan bo'lsak, 2020-yilda jami xarid hajmida topshirish dalolatnomasida va soliq hisobotlarida ko'rsatilgan gaz hajmida 559 mln.m<sup>3</sup> farq mavjudligi ko'rish mumkin bo'lsa-da, ammo, 2021-2022-yillarda bunday farq yuzaga kelmagan bo'lib, albatta bu holatni yashirin iqtisodiyot asosida soliqdan qochish holatlarining bir muncha bo'lsada kamayganligini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, tabiiy gazni ishlab chiqish va uni iste'molchilarga yetkazib berish, shu bilan bog'liq soliq to'lovlarini amalga oshirish jarayonida juda katta ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga sabab bo'lmoqda, bu jarayondagi uzilishlar esa, ishlab chiqaruvchilar va aholining ayrim toifalarining jiddiy e'tirozlariga sabab bo'lmoqda, shundan kelib chiqib, quyida bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, sotish va iste'molchilarga yetkazib berish va soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqarish omillarini qisqacha tahlilini keltirish lozim deb topdik.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda qazib olingan tabiiy gaz hajmi 51,7 mlrd.m<sup>3</sup>ni, realizatsiya hajmi 48,4 mlrd.m<sup>3</sup> tashkil etib, 2019-yilga nisbatan mos ravishda 3,3 (6,4 %) va 4,2 (8 %) mlrd.m<sup>3</sup>ga kamaygan. Jumladan, O'zbekneftgaz korxonalarida realizatsiya hajmi 3,9 mlrd.m<sup>3</sup> (12 %) ga kamaygan. Buning asosiy sabablari ishlab chiqarishda yo'qotilgan va o'z ehtiyojlari uchun

ishlatilgan (yo'qotish) tabiiy gaz miqdorining 17 foizga ortishi hamda tabiiy gaz hisobining avtomatlashtirilgan tizimi mavjud emasligidir. Vaholanki, 2022-yilda O'zbekneftgaz korxonalarida yo'qotish jami qazib olish hajmiga nisbatan 9 foizni tashkil etgan, bu boshqa (Rossiyada 4,9 %, Ozarbayjonda 1,8 % – 2,2 %, AQSHda 1,4 %) davlatlardagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 50-60 foizga ko'p.

O'ztransgaz tomonidan (O'zgaztrejd bilan birga) 2022-yilda 46 mlrd.m<sup>3</sup> (eksport 4,2 mlrd.m<sup>3</sup>) tabiiy gaz realizatsiya qilingan bo'lib, 2019-yilga (50 mlrd.m<sup>3</sup>, shundan eksport 12,2 mlrd.m<sup>3</sup>) nisbatan 4 mlrd.m<sup>3</sup>ga kamaygan. 2022-yilda ichki iste'molchilarga 41,6 mlrd.m<sup>3</sup>, shundan ulgurji korxonalarga 30,1 mlrd.m<sup>3</sup> va aholiga 11,5 mlrd.m<sup>3</sup> tabiiy gaz yetkazib berilgan bo'lib, 2019-yilga nisbatan 3,9 mlrd.m<sup>3</sup> (ulgurji 2,4 va aholi 1,5 mlrd.m<sup>3</sup>)ga oshgan.

### **Xulosa va takliflar:**

*Birinchi*dan, tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, tashish hamda iste'molchilarga realizatsiya qilishning barcha bosqichlarida qadar to'liq hisob-kitoblar tizimini avtomatlashtirish. Bunda mavjud tabiiy gaz bo'yicha elektron hisoblagichlarni soliq organlariga integratsiya ishlarini tashkillashtirish;

*ikkinchi*dan, barcha qabul qilish va uzatish nuqtalariga onlayn elektron hisoblagichlarni to'liq o'rnatish, realizatsiya qilinadigan gaz bo'yicha elektron dalolatnoma rasmiylashtirish va yagona avtomatlashgan tabiiy gaz harakati tizimini yaratish;

*uchinchi*dan, ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqib, tabiiy gazga o'rnatilgan tariflarni qayta ko'rib chiqish;

*to'rtinchi*dan, barcha bosqichlarda yo'qotilgan va o'z ehtiyojlari uchun ishlatilgan tabiiy gaz hajmi bo'yicha normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish taklif etiladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.